

YOSHLARNI TARBIVYASHLASHDA OTA-ONALARNING O'RNI

Galdiyeva Mehribon Durdiyevna

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti "Psixologiya" kafedrasi psixologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

E-mail mehribon.galdiyeva@gmail.com Telefon: 90-358-58-43

Quvondiqova Maftuna Farhod qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti "Pedagogika" fakulteti 2-bosqich talabasi

Ma'lumki, inson ilk tarbiyani oilada oladi hamda uning beg'ubor, sof tuyg'ularni aynan shu yerda, oila bag'rida shakllanadi va kamol topadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar, yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas sanalgan tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi hech kimga sir emas.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Olam yaralibdiki, ezgu kuchlar bilan birga yovuzlik ham mavjud. Ajdodlarimizning buyuk merosi bo'lgan "Avesto"da "Olamning asosi nima?" degan savol qo'yilib, olamning asosini ezgulik bilan yovuz kuchlar o'rtasidagi kurash tashkil qiladi deb ko'rsatilgan. Bugungi kunda ham dunyoda ezgulik bilan birga yovuzlik yonma-yon yashamoqda. Bu ikki qutb mudom kurashmoqda. Bunday yovuz kuchlarga qarshi kurash, inson qalbi tabiatini ulardan asrash muhim muammoga aylandi. Ezgu maqsadga xizmat qilgan mafkuralar bunyodkor g'oyalarga asoslangan. Vayronkor g'oyalar va mafkuralar xalqlar va davlatlarni tanazzulga etaklaydi.

Shuni ta'kidlash zarurki, xalqimizning ma'naviy birligiga zarba berishga, yoshlarimizning ishonch e'tiqodini buzishga, ular ongi va qalbiga buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinayotgan destruktiv kuchlar ham mavjudki, ular turli xil buzg'unchi g'oyalar ostida ayrim irodasi zaif yoshlarni o'z saflariga tortib, o'z yurtiga, ona Vataniga, ota-onasiga, aka-ukasiga, do'st-birodarlariga qarshi kurashga undamoqda. Ko'pgina ko'ngilsizliklarga odatda bekorchilik sabab bo'ladi. Shuning uchun yoshlarni ota-onalari bolaligidan boshlab biror kasb-hunarga yoki ilmga to'g'ri yo'naltirishlari kerak. Ayniqsa, bolaning qiziqish va imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirishda bevosita pedagog hamda psixolog bilan maslahatlashishlari samarali natija beradi.

Shaxslarining tarbiyalanganlik darajalarini aniqlash va ularni ilmiy o'rganishning o'ziga xos jihatlardan yana biri uning yosh xususiyatlarini, aqliy taraqqiyot va odoblilik darajasini e'tiborga olgan holda yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu milliy tarbiyasi yuqori bo'lgan o'quvchi bolalar va o'smirlar haqida yanada aniqroq, to'laroq ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

Oilada shaxslarning ma'naviy dunyosini takomillashtirish uchun unda zarur ruhiy xotirjamlik, ibratli ruhiy munosabat, o'zaro totuvlik yaratilgan bo'lishi kerak. Ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatda hamjihatlik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, shirinsuxanlik, bir-biriga g'amho'rlik mavjud bo'lsa, bunday muomala-munosabat bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Ular o'z farzandlariga chinakam baxt, quvonch hadya etadilar. Oila a'zolarining did-farosati, qiziqishi, ehtiyojlari, intilishlari o'zaro bir-biriga munosib bo'lsa, oilaning inoq, ahil turmush kechirishlariga, oilaviy munosabatlarning mustahkam bo'lishiga puxta zamin hozirlaydi. Muayyan darajada oilada shart-sharoitlarning mavjudligi oila mustahkamligini shakllantirib, ma'naviy shaxs tarbiyasiga zamin yaratadi.

Shaxsning ma'naviy etuk holda shakllanishiga qaratilgan, uning kamol topishi, o'zi va atrofidagilarning salomatligini saqlash, yomon odatlardan holi bo'lishi hamda o'zining hayotdagi o'rnini anglash masalalari yuzasidan mas'uliyatli qarorlarni qabul qiluvchi o'sib ulg'ayotgan avlodga tarbiya berish masalasi bo'yicha echimlarning yangicha yo'nalishlari – hayotda o'z o'rnini faol egallashga qodir bo'lgan, boy ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashli inson bo'lishidir. Bularning barchasi yosh avlod tarbiyasiga yangicha yondoshishni talab qiladi.

Milliy ma'naviyatimizning axloqiy jihatlari yoshlarimizga ham nazariy, ham axloqiy targ'ib qilinmoqda. Bugungi kunda Vatanni sevish va himoya qilish, yurtni obod qilish, ota-onani hurmatlash, keksa nogiron, etim-esirlarga mehr-muruvvat ko'rsatish kabi yuksak fazilatlar bilan yoshlarimizni tarbiyalash milliy qadriyatlarimizning eng asl negizlaridir. Jamiyatimizning moddiy va ma'naviy taraqqiyoti uchun yordam beradigan, tenglik va barqarorlikni ta'minlashda yuksak insoniy qadriyatlarni kamol toptiradigan milliy an'alarimizdan unumli foydalanmog'imiz darkor.

Tezroq kamolga etgan bola jamiyat rivojiga ham kattaroq hissa qo'shadi. Shuning uchun ota-onalar farzandlarini ma'naviy etuk qilib tarbiyalashlari uchun o'zini o'z-anglashga yordamlashishidan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Фарфиева, К. А. (2021). ЎСПИРИНЛАР ИЛМИЙ ТАСАВВУРЛАРИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ СТЕРОТИПЛАРНИ ЎРГАНИШ. *Современное образование (Узбекистан)*, (12 (109)), 40-48

2. Galdiyeva, M. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNING TARBIYASIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMIOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNI BELGILOVCHI MEZONLAR TADQIQI. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, (I).
3. Галдиева, М. Д. (2022). ЎҚУВЧИЛАР МИЛЛИЙ ТАРБИЯСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАРНИ ЎРГАНИШ. *Современное образование (Узбекистан)*, (10 (119)), 57-65.
4. Sobirov, Y. (2023). O'SMIRLARDA XAVOTIRLANISH HISSI PAYDO BO'LISHINING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. *Evrasiyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy*, 3(4 Special Issue), 142-146.
5. Eshmurodov, O. (2024). TA'LIM TASHKILOTLARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING IYNALISHLARI VA DOLZARBILIGI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 148-151. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9838>
6. Eshmurodov, O., & O'roqova, L. (2024). MAKTABLARDA PSIXOLOGIK XIZMATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 152-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9839>
7. Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. . (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA O'RGATISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 169-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9840>
8. Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>